**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVÇI
DSc.06/2025.27.12.Tib.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGAŞ**

TIBBIYOT XODIMLARINI KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRIŞ MARKAZI

XOLMATOV ŞOHJAXON ALIŞER ÖĞLI

YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARI BÖLGAN KEKSA BEMORLARDA ÇAP QORINÇA REMODELLANIŞIDA METABOLIK XAVF OMILLARINING PROFILAKTIKASI

14.00.43 – Profilaktik tibbiyot

**Tibbiyot fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon - 2026

UÖK: 616.12-005.4:616.12-008.331.1-053.9

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Xolmatov Şohjaxon Alişer öğli
Yurak-qon tomir kasalliklari bölgan
keksa bemorlarda çap qorinça remodellanişida
metabolik xavf omillarining
profilaktikasi 3

Холматов Шохжахон Алишер угли
Профилактика метаболических факторов риска
ремоделирования левого желудочка
у пожилых пациентов с сердечно-сосудистыми
заболеваниями 21

Kholmatov Shokhjakhon Alisher ugli
Prevention of metabolic risk factors
for left ventricular remodeling
in elderly patients with cardiovascular
diseases 39

E'lon qilingan işlar röyxati
Список опубликованных работ
List of publişed work 45

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVÇI
DSc.06/2025.27.12.Tib.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGAŞ**

TIBBIYOT XODIMLARINI KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRIŞ MARKAZI

XOLMATOV ŞOHJAXON ALIŞER ÖĞLI

YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARI BÖLGAN KEKSA BEMORLARDA ÇAP QORINÇA REMODELLANIŞIDA METABOLIK XAVF OMILLARINING PROFILAKTIKASI

14.00.43 – Profilaktik tibbiyot

**Tibbiyot fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Özbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.2.PhD/Tib6170 raqam röyxatga olingan.

Dissertatsiya Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantiriş markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uç tilda (özbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengaş veb-sahifasida (www.adti.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylaştirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tulaboeva Gavxar Mirokborovna** tibbiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Rustamova Mamlakat Tulaboevna** tibbiyot fanlari doktori, professor
	Nişonova Nodiraxon Akramovna tibbiyot fanlari doktori, dotsent FF
Yetakçi taşkilot:	**Samarqand davlat tibbiyot univeriteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvçi DSc.06/2025.27.12.Tib.02.02 raqamli Ilmiy kengaşning 2026 yil «30» 11 kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bölib ötadi. (Manzil: 170100, Andijon şahri, Yu.Otabekov köçasi, 1-uy. Tel./faks: (+998) 74-223-94-50; e-mail: info@adti.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat tibbiyot institutining Axborot-resurs markazida tanişiş mumkin (_____ raqam bilan röyxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon şahri, Yu.Otabekov köçasi, 1-uy. Tel./faks: (+998) 74-223-94-50.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «17» 11. kuni tarqatildi.
(2026 yil «17» 11. №28. dagi raqamli reestr bayonnomasi.)

I.Yu. Mamatova
Ilmiy darajalar beruvçi Ilmiy kengaş raisi, kimyo fanlari doktori, professor

J.A. Botirov
Ilmiy darajalar beruvçi Ilmiy kengaş ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari doktori, dotsent

N.S. Xakimov
Ilmiy darajalar beruvçi Ilmiy kengaş qoşidagi Ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori, dotsent

KIRIŞ (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Sönggi yillarda dunyo böylab aholining qariş tendensiyasi bilan bir qatorda, keksa yoşli şaxslarda yurak-qon tomir kasalliklari (YuQTK) uçraş holatlari tobora ortib bormoqda.[1] Bu guruhda, ayniqsa, arterial gipertoniya, yurak işemik kasalligi, kardiomiopatiyalar va şu kabi patologiyalar fonida çap qorinçaning tuziliş va funksiyasini özgartiruvçi remodellaşuv jarayonlari keng tarqalgan. Uşbu özgarişlar nafaqat yurak faoliyatini izdan çiqaradi, balki hayot uçun xavfli bölgan holatlar, jumladan, sistolik va diastolik funksional yetişmovçilik, aritmiyalar, va nihoyat, yurak yetişmovçiligiga olib keladi. Keksa yoşli bemorlarda uşbu jarayonlarning keçişi köplab omillar qöşilgan kasalliklar (qandli diabet, semizlik, dislipidemiya), metabolik sindrom komponentlari, davolaşga rioya qilmaslik va fiziologik qariş bilan yanada murakkab tus oladi.[2] Şu sababli, bu aholi qatlamida çap qorinça remodellanişining klinik, exokardiografik va metabolik körsatkiçlarini baholaş orqali erta aniqlaş, xavf darajasini baholaş hamda samarali profilaktika va davo çoralarini işlab çiqiş ayni vaqtda dolzarb va muhim hisoblanadi.

Bundan taşqari, uşbu yönalişda amalga oşiriladigan tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan soliştirganda, bizning mintaqamizda, ayniqsa, Özbekistonda yetarli emas. Şuningdek, keksa yoşli bemorlarga individual yondaşuvni ta'minlaş, ularda remodellanişning morfofunksional xususiyatlarini hisobga olgan holda, patogenetik asoslangan davo-diagnostik algoritmlarni işlab çiqiş talab etiladi. Şu nuqtai nazardan, uşbu dissertatsiya mavzusi keksa yoşli bemorlarda yurak-qon tomir kasalliklari fonnda çap qorinçaning qayta şakllanişini baholaş va metabolik xavf omillarini bartaraf etiş çoralarini işlab çiqiş – hozirgi zamonaviy kardiologiya va geriatriyaning dolzarb, ilmiy va amaliyotda katta ahamiyatga ega masalalaridan biridir.

Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 martdagi "Nuroniylarni har tomonlama qöllab-quvvatlaş, ularning turmuş darajasini oşirişga doir qöşimça çora-tadbirlar töğrisida"gi №167-son qarori[3], şuningdek quyidagi hujjatlar uşbu maqsadlarga yönaltirilgan çora-tadbirlarni amalga oşirişga xizmat qilmoqda: 2020 yil 28 maydagi Vazirlar Mahkamasining 340-son qarori "Keksalarni davlat tomonidan qöllab-quvvatlaş tizimini yanada takomillaştirişning qöşimça çora-tadbirlari töğrisida"; 2020 yil 26 martdagi PF-4649-sonli farmonda koronavirus infeksiyasining mamlakatda keng tarqalişining oldini oliş böyiça qöşimça çora-tadbirlar, 2020 yil 19 martdagi PF-5969-sonli farmonda pandemiya va global inqirozning iqtisodiyot sohalariga salbiy ta'sirini kamaytiriş böyiça ustuvor vazifalar, 2020 yil 22 apreldagi PF-4691-sonli farmonda esa soğliqni saqlaş

[1] World Health Organization (WHO). *Cardiovascular diseases (CVDs).* 2025.
[2] Visseren F.L.J. et al. *2021 ESC Guidelines on cardiovascular disease prevention in clinical practice.* Eur Heart J. 2021;42:3227–3337.
[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.03.2022 y. PQ-167-son qarori. Lex.uz.

tizimini isloh qilişga oid kompleks çora-tadbirlar belgilab berilgan. Şuningdek, 2017 yil 20 iyunda qabul qilingan PQ-3071-sonli qarorda aholiga ixtisoslaştirilgan tibbiy yordam körsatişni rivojlantiriş masalalari belgilangan. Uşbu normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan ustuvor yönalişlarni amalga oşirişga mazkur dissertatsion tadqiqot öz hissasini qöşişga qaratilgan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanişining ustuvor yönalişlariga mosligi. Uşbu dissertatsiya tadqiqoti respublika VI "Tibbiyot va farmakologiya" – fan va texnologiyalarni takomillaştirişning ustuvor yönalişiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning örganilganlik darajasi. Keksa yoşli bemorlarda yurak-qon tomir kasalliklari (YuQTK) bilan boğliq çap qorinça remodellanişi va metabolik xavf omillari örtasidagi boğliqlik jahon tibbiyotida keng örganilmoqda. AQŞ, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va Italiyada çap qorinça geometriyasi, exokardiografik körsatkiçlari hamda remodellanişning turli klinik şakllari böyiça keng kölamli tadqiqotlar ötkazilgan. Framingham Heart Study, LIFE Study va MESA tadqiqotlarida çap qorinça massasi va geometriyasining miokard infarkti, insult va surunkali yurak yetişmovçiligi bilan boğliqligi, şuningdek metabolik sindrom komponentlarining uşbu jarayondagi ahamiyati ilmiy asoslangan. De Simone G., Levy D., Ganau A. va boşqa tadqiqotçilar metabolik sindrom, semizlik, giperinsulinemiya va arterial gipertoniyaning miokard remodellanişiga ta'sirini örgangan. AHA, ESC hamda Yaponiya kardiologiya maktablari tomonidan keksa yoşda çap qorinça remodellanişining exokardiografik, metabolik va prognostik mezonlari işlab çiqilgan.

Sobiq SSSR va MDH davlatlarida A.M. Şlyaxto, I.E. Çazova, S.N. Tereşçenko, Yu.M. Lopatkin, I.I. Gladskix va boşqa olimlar çap qorinça geometriyasi, remodellaniş patofiziologiyasi va uning farmakologik korreksiyasini örgangan. Rossiya kardiologiya ilmiy markazida keksa yoşli bemorlarda arterial gipertoniya va işemik yurak kasalligining çap qorinça remodellanişiga ta'siri böyiça klinik va eksperimental tadqiqotlar ötkazilgan. Mazkur yönalişda Belarus, Qozoğiston, Ukraina va Moldova olimlari tomonidan ham tadqiqotlar olib borilgan.

Özbekistonda sönggi yillarda çap qorinça remodellanişining arterial qon bosimi, qandli diabet, semizlik va lipid almaşinuvi buzilişlari bilan boğliqligini örganişga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. A.G. Muminov, N.U. Zokirov, H.H. Tursunov, S.H. Xolmöminova va boşqa olimlar keksa yoşli bemorlarda yurak-qon tomir kasalliklari patogenezi va çap qorinça remodellanişini örgangan. Biroq keksa yoşli bemorlarda çap qorinça remodellanişi va metabolik xavf omillari örtasidagi boğliqlikni klinik, instrumental va laborator jihatdan kompleks baholaş hamda individuallaştirilgan davolaş strategiyalarini işlab çiqişga qaratilgan tizimli tadqiqotlar yetarli emas. Şu sababli uşbu muammoni kompleks örganiş va natijalarni klinik amaliyotga joriy etiş dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot işlari rejalari bilan boğliqligi. Uşbu dissertatsiya tadqiqoti Özbekiston Respublikasi Soğliqni saqlaş vazirligi huzuridagi Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantiriş markazining ilmiy tadqiqotlar

rejasiga muvofiq, №0196 0004420 raqamli «Yurak-qon tomir tizimining yoşga boğliq jihatlari» mavzusi doirasida (2012–2017 y.) amalga oşirilgan.

Tadqiqot maqsadi: Yurak işemik kasalligi va arterial gipertenziyasi mavjud bölgan keksa yoşli bemorlarda miokard remodellanişi körsatkiçlarini, endoteliy funksiyasini va metabolik xavf omillarini kompleks tarzda baholaş, ular örtasidagi özaro boğliqlikni aniqlaş, xavf guruhlarini şakllantiriş va yurak-qon tomir asoratlarini erta başorat qiliş hamda individuallaştirilgan profilaktika çoralarini belgilaşda uşbu körsatkiçlarning klinik va prognostik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslaş.

Tadqiqot vazifalari:

yurak işemik kasalligi va arterial gipertenziyasi mavjud bölgan keksa yoşli bemorlarda metabolik xavf omillarining miokard remodellanişiga ta'sirini örganiş va ular örtasidagi özaro boğliqlikni tahlil qiliş;

miokard remodellanişining exokardiografik va biometrik körsatkiçlarini tahlil qiliş, kuzatilgan tuziliş özgarişlarini klinik holatlar bilan boğliq holda baholaş;

yurak işemik kasalligi va arterial gipertenziyasi mavjud bölgan keksa yoşli bemorlarda endotelial disfunksiya darajasini aniqlaş hamda uning miokard remodellanişi parametrlari va hayot uçun xavfli asoratlar bilan özaro boğliqligini baholaş;

klinik, laborator va instrumental ma'lumotlar asosida yurak-qon tomir asoratlari rivojlaniş xavfi yuqori bölgan bemorlarni saralaş va xavf guruhlarini şakllantiriş mezonlarini işlab çiqiş.

Tadqiqot obyekti sifatida keksa yoşli bemorlarda yurak-qon tomir kasalliklari (arterial gipertoniya va işemik yurak kasalligi) şaroitida çap qorinçaning qayta şakllanişi (remodellanişi) va mazkur jarayonga ta'sir qiluvçi metabolik xavf omilliga ega bölgan bemorlar.

Tadqiqotning predmeti quyidagilardan iborat böldi: keksa yoşli bemorlarda çap qorinçaning remodellanişi, unga ta'sir etuvçi metabolik xavf omillari va ularning klinik, exokardiografik hamda bioximik körsatkiçlar bilan özaro boğliqligi.

Tadqiqot usullari: klinik, exokardiografik, laborator-bioximik tahlillar, sutkalik AB monitoringi va statistik işlov beriş usullari qöllanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

keksa yoşli bemorlarda yurak işemik kasalligi va arterial gipertenziya birikmasi holatida miokard remodellanişi, endotelial disfunksiya, metabolik özgarişlar va klinik asoratlar bilan boğliq holda kompleks baholanib, ularning özaro boğliqligi aniqlangan;

yurak işemik kasalligi va arterial gipertenziyasi bilan oğrigan keksa bemorlarda metabolik buzilişlarning miokard tuzilişiga bölgan ta'siri jiddiyroq bölib, aynan bu omillar miokard gipertrofiyasi va diastolik disfunksiyaning rivojlanişida asosiy patogenetik asos bölib xizmat qilişi aniqlangan;

keksa yoşli bemorlarda yurak işemik kasalligi arterial gipertenziya bilan birga uçragan hollarda, endoteliy faoliyati körsatkiçlari bilan exokardiografik parametrlar örtasida sezilarli işonarli teskari boğliqlik mavjudligi va miokard remodellanişida endotelial disfunksiya muhim ahamiyat kasb etişi aniqlangan;

yurak işemik kasalligi va arterial gipertenziya bilan oğrigan keksa yoşli bemorlar uçun exokardiografik, klinik va laborator ma'lumotlarga tayanilgan holda, yurak-qon tomir asoratlari rivojlaniş xavfini baholaşga xizmat qiluvçi integrallaşgan xavf guruhlaş mezonlari ilk bor işlab çiqilib, uşbu mezonlar bemorlarni saralaş va individual profilaktika çoralarini belgilaşda samarali instrument ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Uşbu tadqiqot natijalari asosida keksa yoşli bemorlarda çap qorinçaning remodellaniş jarayonlari va ularga ta'sir etuvçi metabolik xavf omillari örtasidagi murakkab özaro boğliqliklar aniqlandi. Jumladan, semizlik, giperglikemiya, dislipidemiya kabi metabolik buzilişlarning çap qorinça tuzilişi va funksiyasidagi özgarişlarga qay darajada ta'sir qilgani exokardiografik va bioximik körsatkiçlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida çap qorinçaning turli geometrik modellari uçun xos bölgan klinik va laborator körsatkiçlar aniqlandi. Bu ma'lumotlar asosida yurak-qon tomir asoratlari rivojlaniş xavfini baholaşga yordam beradigan prognoz mezonlari şakllantirildi. Olingan ilmiy natijalar keksa yoşli bemorlar uçun individuallaştirilgan yondaşuvni joriy etiş, ya'ni metabolik fonni hisobga olgan holda profilaktika va davolaş strategiyalarini işlab çiqiş imkonini berdi. Bu esa amaliyotda yurak-qon tomir kasalliklarining asoratlarini kamaytirişga va hayot sifatini yaxşilaşga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining işonçliligi bir qator asosiy omillarga tayangan. Jumladan, işda ilmiy jihatdan puxta işlangan nazariy qaraşlar va zamonaviy metodologik yondaşuvlar asos qilib olingan. Tadqiqotning barça bosqiçlari uslubiy jihatdan aniq reja asosida taşkil etilgan va iştirok etgan bemorlar soni statistik jihatdan yetarli bölgan. Qöllanilgan laborator va instrumental tahlil usullari amaldagi xalqaro standartlarga mos keladi hamda olingan natijalar ilmiy manbalardagi ma'lumotlar bilan muvofiqlaşadi. Erişilgan xulosalar tegişli sohadagi xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar bilan taqqoslab baholangan va tadqiqot natijalari sohaviy mutaxassislar hamda vakolatli taşkilotlar tomonidan tasdiqlangan. Bularning barçasi tadqiqotning işonçli va asosli ekanligini yanada mustahkamlaydi.

Tadqiqotning amaliy va ilmiy ahamiyati. Keksa yoşli bemorlarda yurak işemik kasalligi va arterial gipertenziya birgalikda uçragan hollarda endoteliy funksiyasi, miokard remodellanişi va metabolik özgarişlarni birgalikda baholaş imkoni yaratilib, davolaş va kuzatuv taktikalarini individuallaştirişga zamin yaratildi. Uşbu tadqiqotda şakllantirilgan xavf guruhlaş mezonlari yurak-qon tomir asoratlarini erta başorat qiliş, yuqori xavfli bemorlarni saralaş va profilaktik tadbirlarni maqsadli yönaltirişda samarali instrument sifatida foydalanilişi mumkin. Endoteliy disfunksiyasini baholaş klinik amaliyotga joriy etiş orqali, miokard remodellanişining erta belgilari aniqlanib, davolaş usullarini öz vaqtida belgilaş imkonini beradi. Miokard gipertrofiyasi va diastolik disfunksiya rivojlanişiga metabolik xavf omillarining ta'siri e'tiborga olinib, ularni bartaraf etiş profilaktikaning muhim yönalişi sifatida tavsiya etiladi.

Ilk bor yurak işemik kasalligi va arterial gipertenziya bilan oğrigan keksa yoşli bemorlarda endoteliy funksiyasi, miokard remodellanişi, metabolik

özgarişlar va klinik asoratlar özaro boğliqlikda kompleks tahlil qilindi. Miokard remodellaniş jarayonida endoteliy disfunksiyasining körsatgiçlari bilan exokardiografik parametrlar örtasidagi işonarli teskari boğliqlik asosida ilmiy jihatdan asoslab berildi. Metabolik buzilişlarning (semizlik, giperglikemiya, dislipidemiya) miokard tuzilişiga ta'siri va ularning gipertrofiya hamda diastolik disfunksiya rivojlanişidagi patogenetik roli aniqlandi. Klinik, laborator va instrumental ma'lumotlarga tayanilgan holda yurak-qon tomir asoratlari rivojlaniş xavfini baholaşga xizmat qiluvçi integrallaşgan xavf guruhlaş mezonlari ilk bor işlab çiqildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinişi.

Özbekiston Respublikasi Soğliqni saqlaş vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengaşning Muvofiqlaştiruvçi ekspert kengaşi 2025 yil 22 maydagi 18-sonli yiğilişi bayonnomasi hamda ilmiy tadqiqot işlari natijalarini amaliyotga tatbiq etiş böyiça 18/30-sonli xulosasiga asosan:

birinçi ilmiy yangilik: Keksa yoşli bemorlarda yurak işemik kasalligi va arterial gipertenziya birikmasi holatida miokard remodellanişi, endotelial disfunksiya, metabolik özgarişlar hamda klinik asoratlar özaro boğliq holda kompleks baholanib, uşbu körsatkiçlar yurak-qon tomir asoratlari rivojlanişida muhim patogenetik ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Aniqlangan holatlar keksa yoşli bemorlarda kasallikning yaşirin keçişi, asoratlar xavfining ortişi va prognozning yomonlaşişi bilan bevosita boğliq ekanligini körsatadi. Mazkur ilmiy yangilik asosida işlab çiqilgan takliflar Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantiriş markazi Olimlar kengaşining 2025 yildagi 56-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Keksalarda yurak-qon tomir kasalliklarida çap qorinçaning remodellanişida metabolik xavf omillari: ahamiyati va profilaktik yondaşuvlar" nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Uşbu takliflar Respublika ixtisoslaştirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Namangan filialida 2026 yil 13 maydagi 47/i-sonli buyruq asosida hamda Keksalar va nogironligi bölgan şaxslar, uruş va mehnat faxriylari uçun "Buxoro" sanatoriysida 2026 yil 29 fevraldagi 4-sonli buyruq asosida amaliyotga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* Ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiq etilişi keksa yoşli bemorlarda yurak işemik kasalligi va arterial gipertenziya birikmasi holatida miokard remodellanişi, endotelial disfunksiya va metabolik özgarişlarni erta bosqiçda aniqlaş, asoratlar xavfini oldindan baholaş hamda davolaş taktikasiga öz vaqtida tuzatiş kiritiş imkonini berdi. Bu esa bemorlarning şifokorlarga qayta murojaat qilişi va takroriy gospitalizatsiyalar sonini kamaytiriş, şuningdek keksa yoşli bemorlarning hayot sifatini yaxşilaşga xizmat qildi. *Iqtisodiy samaradorligi:* Keksa yoşli bemorlarda yurak işemik kasalligi va arterial gipertenziya fonida klinik, exokardiografik va laborator körsatkiçlarni kompleks baholaş asosida asoratlarni erta oldini oliş hisobiga yil davomida har bir bemorda kamida bir marta takroriy statsionar davolanişning oldi olindi. Natijada bir nafar bemor hisobiga örtaça 2500000 – 3000000 söm miqdoridagi statsionar davolaniş bilan boğliq xarajatlarni tejaş imkonini yaratildi.

ikkinçi ilmiy yangilik: Yurak işemik kasalligi va arterial gipertenziya bilan oğrigan keksa yoşli bemorlarda metabolik buzilişlarning (semizlik,

giperglikemiya, dislipidemiya) miokard tuzilişiga jiddiy ta’sir körsatişi, ayniqsa miokard gipertrofiyasi va diastolik disfunksiyaning rivojlanişida yetakçi patogenetik omil sifatida namoyon bölişi ilmiy jihatdan asoslandi. Aniqlangan holatlar uşbu toifadagi bemorlarni faqat gemodinamik emas, balki metabolik jihatdan ham kompleks nazorat qiliş zarurligini körsatadi. Metabolik buzilişlarni kompleks baholaş va ularni miokard remodellanişi bilan boğliq holda tahlil qilişga qaratilgan mazkur ilmiy yangilikdan kelib çiqqan takliflar Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantiriş markazi Olimlar kengaşining 2025 yildagi 56-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Keksalarda yurak-qon tomir kasalliklarida çap qorinçaning remodellanişida metabolik xavf omillari: ahamiyati va profilaktik yondaşuvlar” nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Uşbu takliflar Respublika ixtisoslaştirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Namangan filialida 2026 yil 13 maydagi 47/i-sonli buyruq asosida hamda Keksalar va nogironligi bölgan şaxslar, uruş va mehnat faxriylari uçun “Buxoro” sanatoriysida 2026 yil 29 fevraldagi 4-sonli buyruq asosida amaliyotga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* Ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiq etilişi keksa yoşli bemorlarda metabolik buzilişlarni erta aniqlaş va maqsadli korreksiya qiliş, miokard gipertrofiyasi hamda diastolik disfunksiya rivojlanişini çeklaş, davolaş samaradorligini oşiriş va kasallikning oğir klinik şakllarga ötişi çastotasini kamaytirişga xizmat qiladi. *Iqtisodiy samaradorligi:* Metabolik buzilişlarni erta bosqiçda aniqlaş va korreksiya qiliş hisobiga qöşimça qimmat dori vositalarini qöllaş ehtiyoji kamaydi. Natijada har bir bemor hisobiga yil davomida örtaça 1200000 – 1500000 söm miqdorida dori-darmon xarajatlarini qisqartiriş imkonini yaratildi.

uçinçi ilmiy yangilik: Keksa yoşli bemorlarda endoteliy faoliyati körsatkiçlari bilan exokardiografik parametrlar örtasida işonarli teskari boğliqlik mavjud ekanligi ilmiy jihatdan asoslanib, miokard remodellaniş jarayonida endotelial disfunksiya muhim patogenetik ahamiyat kasb etişi isbotlandi. Aniqlangan uşbu boğliqlik keksa yoşli bemorlarda kasallik progressiyasi, miokard tuzilişi va funksiyasining buzilişi bilan bevosita boğliq ekanligini körsatadi. Endoteliy faoliyati va exokardiografik parametrlar örtasidagi özaro boğliqlikni baholaşga qaratilgan mazkur ilmiy yangilik asosida işlab çiqilgan takliflar Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantiriş markazi Olimlar kengaşining 2025 yildagi 56-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Keksalarda yurak-qon tomir kasalliklarida çap qorinçaning remodellanişida metabolik xavf omillari: ahamiyati va profilaktik yondaşuvlar” nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Mazkur takliflar Respublika ixtisoslaştirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Namangan filialida 2026 yil 13 maydagi 47/i-sonli buyruq asosida hamda Keksalar va nogironligi bölgan şaxslar, uruş va mehnat faxriylari uçun “Buxoro” sanatoriysida 2026 yil 29 fevraldagi 4-sonli buyruq asosida amaliyotga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* ilmiy natijalarning klinik amaliyotga tatbiq etilişi keksa yoşli bemorlarda endoteliy holatini baholaşni keng joriy etiş, miokard remodellanişining erta bosqiçlarini aniqlaş va kasallik progressiyasini sekinlaştiriş imkonini yaratdi, bu esa yurak-qon tomir asoratlarining oldini oliş va bemorlarning hayot sifatini yaxşilaşga xizmat qiladi. *Iqtisodiy samaradorligi:* endotelial

disfunksiyani erta aniqlaş orqali yurak yetişmovçiligi va miokard infarkti kabi oğir asoratlar rivojlaniş xavfi kamaydi hamda har bir bemor hisobida qöşimça qimmat tekşiruvlar va davolaş xarajatlarini inobatga olgan holda örtaça 1800000 – 2000000 söm miqdorida iqtisodiy samaraga erişildi.

törtinçi ilmiy yangilik: Yurak işemik kasalligi va arterial gipertenziya bilan oğrigan keksa yoşli bemorlar uçun exokardiografik, klinik va laborator ma'lumotlarga asoslangan integrallaşgan xavf guruhlaş mezonlari işlab çiqildi. Uşbu mezonlarga tayangan holda bemorlarni individual xavf darajasiga köra yuqori, örta va past xavf guruhlariga ajratiş imkonini yaratildi hamda har bir xavf guruhi uçun maqsadli profilaktika va kuzatuv taktikalarini belgilaş taklif etildi. Xavf guruhlaş mezonlari va profilaktik kuzatuv taktikalarini amaliyotga tatbiq etişga qaratilgan mazkur ilmiy yangilik asosida işlab çiqilgan takliflar Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantiriş markazi Olimlar kengaşining 2025 yildagi 56-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Keksalarda yurak-qon tomir kasalliklarida çap qorinçaning remodellanişida metabolik xavf omillari: ahamiyati va profilaktik yondaşuvlar" nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Uşbu takliflar Respublika ixtisoslaştirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Namangan filialida 2026 yil 13 maydagi 47/i-sonli buyruq asosida hamda Keksalar va nogironligi bölgan şaxslar, uruş va mehnat faxriylari uçun "Buxoro" sanatoriysida 2026 yil 29 fevraldagi 4-sonli buyruq asosida amaliyotga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* yurak işemik kasalligi va arterial gipertenziya bilan oğrigan keksa yoşli bemorlarda xavf darajasini individual baholaş va guruhlarga ajratiş orqali klinik qaror qabul qiliş jarayoni yengillaşib, asoratlarning oldini olişda samarali yondaşuv ta'minlanadi, takroriy murojaatlar va gospitalizatsiyalar soni kamayadi, bu esa tibbiy xizmatlar samaradorligini oşiriş va bemorlarning hayot sifatini yaxşilaşga xizmat qiladi. *Iqtisodiy samaradorligi:* xavf guruhlaş mezonlari asosida profilaktika çoralarini maqsadli qöllaş orqali ortiqça tekşiruvlar va samarasiz davolaş usullari kamayib, har bir bemor uçun yillik iqtisodiy samara örtaça 2000000 – 2300000 sömni taşkil etadi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda e`lon qilingan va muhokamadan ötkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi böyicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan Özbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, tört bob, xotima, xulosa, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar röyxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 107 betni tashkil etadi

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kiriş qismida ötkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirişning ustuvor yönalişlariga mosligi körsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning işonçliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati oçib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qiliş, işning aprobatsiyasi natijalari, e'lon qilingan işlar hamda dissertatsiyaning hajmi va tuzilişi böyiça ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Adabiyotlar şarhi"** deb nomlangan birinçi bobida keksa yoşdagi bemorlarda yurak işemik kasalligining epidemiologiyasi, yoş va jinsga boğliq xususiyatlari, asosiy xavf omillari hamda ularning prognozga ta'siri tahlil qilingan. AG va YuIKda antigipertenziv terapiyaning klinik ahamiyati, çap qorinça remodellanişining exokardiografik şakllari, patogenetik mexanizmlari va prognostik ahamiyati, jumladan, postinfarkt özgarişlar umumlaştirilgan.

Dissertatsiyaning **"Materiallar va tekşiruv usullari"** deb nomlangan ikkinçi bobida tadqiqot dizayni, bemorlar tavsifi va tekşiruv usullari bayon etilgan. Tadqiqot 2023–2025 yillarda Toşkent şahridagi "Medion" klinikasida 60–74 yoşdagi 116 nafar bemorda (örtaça yoş 67,0±4,0) ötkazildi. Ularning 64 nafari (55,2%) erkak, 52 nafari (44,8%) ayol bölib, tadqiqot bioetika talablariga muvofiq amalga oşirildi.


Bemorlar ikki guruhga ajratildi: 1-guruh – arterial gipertoniya va işemik yurak kasalligi mavjud 60 nafar, 2-guruh – faqat arterial gipertoniya mavjud 56 nafar bemor. Arterial gipertoniya davomiyligi mos ravişda 12,4±3,1 va 10,7±2,5 yilni, 1-guruhda işemik yurak kasalligi davomiyligi 8,6±2,8 yilni taşkil etdi. 1-guruhda II va III funksional sinf stenokardiya mos ravişda 41,7% va 58,3% holatda aniqlandi. Arterial gipertoniyaning I, II va III darajalari 1-guruhda 13,3%, 33,3%, 53,3%, 2-guruhda esa 32,1%, 42,9%, 25,0% ni taşkil etdi.

Tekşiruvlar biokimyoviy tahlillar, EKG, exokardiografiya, sutkalik EKG va arterial bosim monitoringi, endotelial funksiya, hayot sifati hamda davolaşga rioya qilişni baholaşni qamrab oldi. Statistik tahlilda Kaplan–Meier, Log-rank testi va Cox regressiya modeli qöllanildi. Ma'lumotlar Microsoft Excel va SPSS Statistics 26.0 dasturlarida işlanib, $p<0,05$ statistik işonçlilik mezoni sifatida qabul qilindi.

Dissertatsiyaning **"Şaxsiy olingan natijalar"** deb nomlangan uçinçi bobida 1-guruh va 2-guruh bemorlarida klinik-gemodinamik xususiyatlar, arterial bosim variabelligi va sutkalik profili, laborator-metabolik körsatkiçlar, miokard remodellanişi, endotelial funksiya, antigipertenziv terapiya, davolaşga rioya qiliş, omon qoliş prognozi va yurak-qon tomir asoratlari qiyosiy tahlil qilindi. Şuningdek, asosiy körsatkiçlar örtasidagi korrelyatsion boğliqliklar va noxuş prognoz xavf omillari baholandi.

Arterial bosim va yurak urişi çastotasi tahlilida YuIK va AG birgalikda keçgan bemorlarda gemodinamik yuklama yuqoriligi aniqlandi. 1-guruhda sistolik arterial bosim 157,4±12,3 mm sim. ust., 2-guruhda 149,6±11,8 mm sim. ust. ($p<0,01$), diastolik arterial bosim mos ravişda 95,2±7,6 va 90,3±6,9 mm sim. ust.

(p<0,05) ni taşkil etdi. Yurak urişi çastotasi 1-guruhda 84,6±9,5 zarba/daq., 2-guruhda 76,8±8,7 zarba/daq. ni taşkil qildi (p<0,01) (1-rasm).



Izoh: *p<0,05; **p<0,01 – guruhlararo işonarli farqlar.

1-rasm. Gemodinamik körsatgiçlar taxlili

Arterial bosimning vizitlararo variabelligi 1-guruhda 7,38±3,23 mm sim. ust., 2-guruhda 5,07±2,81 mm sim. ust. ni taşkil etib, YuIK mavjud bemorlarda arterial bosim özgaruvçanligi yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

Sutkalik arterial bosim profili tahlilida 1-guruhda non-dipper tipi 59 nafar bemorda (98,3%), dipper tipi 1 nafar bemorda (1,7%) kuzatildi. 2-guruhda uşbu körsatkiçlar mos ravişda 40 nafar (71,4%) va 16 nafar (28,6%) ni taşkil etdi. Dipper tipi 2-guruhda işonarli darajada köp uçradi (p<0,001), overdipper tipi har ikki guruhda ham aniqlanmadi (1-jadval). Natijalar YuIK+AG bölgan bemorlarda arterial bosimning fiziologik tungi pasayişi köproq buzilganligini körsatdi.

1-jadval

Arterial bosimning sutkalik profili böyiça bemorlarning taqsimoti

Dipper tipi	1-guruh (n=60)	2-guruh (n=56)	p
Non-dipper	59 (98,3%)	40 (71,4%)	–
Dipper	1 (1,7%)	16 (28,6%)	<0,001
Over-dipper	0 (0%)	0 (0%)	–

Kasallik davomiyligi bilan SAB variabelligi örtasida har ikki guruhda statistik işonçsiz salbiy korrelyatsiya aniqlandi (1-guruh: r=–0,25; p=0,054; 2-guruh: r=–0,10; p=0,46).

Klinik tahlilda 1-guruhda stenokardiya (80,0% va 8,9%), nafas qisişi (70,0% va 10,7%), tez çarçaş (85,0% va 55,4%), yurak urişi nomutanosibligi (65,0% va 21,4%) hamda boş aylanişi (55,0% va 32,1%) köproq kuzatildi (p<0,05–0,001). 2-guruhda esa ensa sohasidagi boş oğriği (76,8% va 20,0%) va quloq şanğillaşi (60,7% va 13,3%) ustunlik qildi (p<0,001). Uyqu buzilişida işonarli farq aniqlanmadi (p>0,05).

Laborator tahlilda 1-guruhda glyukoza (6,8±1,2 va 6,0±1,0 mmol/l), umumiy

xolesterin (6,3±0,9 va 5,6±0,8 mmol/l), triglitseridlar (2,1±0,6 va 1,7±0,5 mmol/l), PZLP (3,8±0,8 va 3,2±0,7 mmol/l) hamda tana vazni indeksi (31,2±3,5 va 29,1±3,2 kg/m²) yuqori, YuZLP esa past (1,0±0,3 va 1,2±0,4 mmol/l) böldi (2-jadval).

1-guruhda C-reaktiv oqsil (6,5±1,2 va 4,9±1,0 mg/l), moçevina (7,1±1,3 va 5,8±1,1 mmol/l) va kreatinin (109,4±14,6 va 92,8±13,2 mkmol/l) yuqori, KFT esa past (64,7±9,3 va 79,5±8,1 ml/daq/1,73 m²) böldi (p<0,001). Natijalar YuIK va AG birgalikda keçganda metabolik buzilişlar, yalliğlaniş faolligi va buyrak disfunksiyasi yaqqolroq ifodalanişini körsatdi (2-jadval).

2-jadval

Laborator va metabolik körsatkiçlarning guruhlararo qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	1-guruh (n=60)	2-guruh (n=56)	p
Qondagi glyukoza (mmol/l)	6,8 ± 1,2	6,0 ± 1,0	<0,05
Umumiy xolesterin (mmol/l)	6,3 ± 0,9	5,6 ± 0,8	–
Triglitseridlar (mmol/l)	2,1 ± 0,6	1,7 ± 0,5	<0,05
Past zichlikdagi lipoproteinlar (mmol/l)	3,8 ± 0,8	3,2 ± 0,7	<0,05
Yuqori zichlikdagi lipoproteinlar (mmol/l)	1,0 ± 0,3	1,2 ± 0,4	–
TMI (kg/m²)	31,2 ± 3,5	29,1 ± 3,2	<0,05

Metabolik xavf omillari 1-guruhda köproq uçrab, dislipidemiya 75,0% va 51,8% (p<0,01), giperglikemiya 55,0% va 33,9%, semizlik 60,0% va 39,3%, insulinga rezistentlik 50,0% va 32,1% ni taşkil etdi (p<0,05).

Metabolik komponentlar soni böyiça bir komponent 1-guruhda 1,7%, 2-guruhda 3,6%, ikki komponent mos ravişda 30,0% va 46,4%, uç va undan ortiq komponentlar esa 68,3% va 50,0% bemorda aniqlandi. YuIK+AG guruhida köp komponentli metabolik yuklamaga moyillik kuzatilgan bölsa-da, farq statistik işonçli bölmadi (p=0,069) (3-jadval).

3-jadval

Metabolik xavf omillari soni böyiça bemorlarning taqsimoti

Komponentlar soni	1-guruh (n=60)	2-guruh (n=56)	p
1 komponent	1 (1.7%)	2 (3.6%)	0,95
2 komponent	18 (30.0%)	26 (46.4%)	0,10
≥3 komponent	41 (68.3%)	28 (50.0%)	0,069

Metabolik komponentlar soni ortişi har ikki guruhda SAB, DAB va YuQSning oşişi bilan boğliq böldi. 1-guruhda barça körsatkiçlar bilan kuçli musbat

korrelyatsiya (r=0,998; p<0,001), 2-guruhda SAB va DAB bilan r=0,998 (p<0,001), YuQS bilan r=0,992 (p=0,001) aniqlandi.

Exokardiografiyada 1-guruhda miokardning struktur-funksional özgarişlari yaqqolroq bölib, qorinçalararo tösiq qalinligi 14,1±1,3 va 12,7±1,1 mm, miokard massasi indeksi 142±18 va 123±15 g/m², E/A nisbati 0,82±0,14 va 1,01±0,18, E/e′ nisbati 12,6±2,1 va 10,2±1,8 ni taşkil etdi. Çap qorinça otiş fraksiyasi mos ravişda 52,3±6,4% va 56,8±5,9% böldi (p<0,05) (4-jadval).

Metabolik komponentlar soni birtaдан uç va undan ortiqqa oşganda 1-guruhda LVMI 104±8 dan 134±12 g/m² ga, E/e′ 8,5±1,2 dan 13,6±2,2 ga oşib, otiş fraksiyasi 61,0±2,5% dan 54,2±4,3% ga pasaydi (p<0,05). 2-guruhda LVMI 98±7,8 dan 122±12,7 g/m² ga, E/e′ 7,9±1,4 dan 11,0±1,53 ga oşdi, otiş fraksiyasi esa 62,0±2,4% dan 56,4±3,9% ga kamaydi. Bu metabolik yuklama ortişi miokard remodellanişi va funksional buzilişlarning çuqurlaşişi bilan boğliqligini körsatdi.


4-jadval

Miokard remodellanişining asosiy exokardiografik körsatkiçlari

Ko‘rsatkichlar	1-gurux	2-gurux	P
Chap qorinchaning diastolik o‘lchami (mm)	55.2 ± 5.8	51.7 ± 4.9	<0.05
Qorinchalararo to‘siq qalinligi (mm)	14.1 ± 1.3	12.7 ± 1.1	<0.05
Chap qorincha orqa devor qalinligi (mm)	13.5 ± 1.2	12.3 ± 1.0	<0.05
Miokard massasi indeksi (g/m²)	142 ± 18	123 ± 15	<0.01
E/A nisbati	0.82 ± 0.14	1.01 ± 0.18	<0.05
E/e’ nisbati	12.6 ± 2.1	10.2 ± 1.8	<0.05
Chap qorinchaning otish fraksiyasi (%)	52.3 ± 6.4	56.8 ± 5.9	<0.05

Arterial gipertenziya davomiyligi bilan exokardiografik körsatkiçlar örtasidagi tahlil YuIK mavjud bemorlarda remodellaniş jarayoni kuçliroq keçişini körsatdi. 1-guruhda AG davomiyligi LVMI (r=+0,78), E/e′ (r=+0,72) va qorinçalararo tösiq qalinligi (r=+0,69) bilan musbat, çap qorinçaning otiş fraksiyasi bilan teskari (r=–0,65) korrelyatsiyaga ega böldi. 2-guruhda uşbu boğliqliklar nisbatan kuçsiz bölib, mos ravişda r=+0,55; r=+0,48; r=+0,52 va r=–0,43 ni taşkil etdi.


Endotelial funksiya FMD testi orqali baholanganda, 1-guruhda FMD 4,9±1,8%, işemiyadan keyingi arteriya diametri 4,3±0,3 mm, pik vazodilatatsiyagaça bölgan vaqt 68±10 soniya va qon oqimi tezligi 180±25 sm/s ni taşkil etdi. 2-guruhda FMD 8,9±2,1%, pik vazodilatatsiyagaça bölgan vaqt 58±9 soniya, qon oqimi tezligi 240±22 sm/s böldi. Natijalar 1-guruhda endotelial vazodilatator javob sezilarli darajada pasayganini körsatdi (2-rasm).



*Izoh: *p<0,05; **p<0,01 – guruhlararo işonarli farqlar.*

2-rasm. Endotelial funksiyani baholaş natijalari

Endotelial funksiya bilan miokard remodellanişi örtasidagi boğliqlik tahlilida 1-guruhda FMD va LVMI örtasida kuçli teskari korrelyatsiya aniqlandi (r=–0,92). 2-guruhda ham teskari boğliqlik saqlanib, r=–0,83 ni taşkil etdi. Bu natijalar endotelial funksiya pasaygan sari miokard remodellanişining ifodalaniş darajasi ortib borişini körsatdi (3-rasm).



3-rasm. FMD va çap qorinça miokardi massasi indeksi örtasidagi korrelyatsion boğliqlik

Antigipertenziv terapiya tahlilida 1-guruhda β-blokatorlar 76,7%, AÖF ingibitorlari va kalsiy kanallari antagonistlari 65,0%, diuretiklar 56,7%, sartanlar 50,0% bemorda qöllanildi. 2-guruhda bu körsatkiçlar mos ravişda 46,4%, 39,3%, 46,4%, 35,7% va 33,9% ni taşkil etdi.

1-guruhda monoterapiya 23,3% bemorda qöllanilib, kalsiy kanallari antagonistlari 35,0%, diuretiklar 43,3% bemorda tayinlanmagan. Terapiya klinik tavsiyalarga muvofiq olib borilgan bölsa-da, preparatlarning kunlik dozalari pastligi va RAATga ta'sir etuvçi vositalardan yetarli foydalanilmagani aniqlandi.

1-guruhda β-blokatorlar dozasi LVMI (r=–0,42), E/e′ (r=–0,40) va qorinçalararo tösiq qalinligi (r=–0,43) bilan salbiy, otiş fraksiyasi bilan musbat (r=+0,44; p<0,05) korrelyatsiyaga ega böldi. AÖF ingibitorlari va ARB dozalari LVMI hamda diastolik disfunksiya körsatkiçlari bilan salbiy (r=–0,50 va r=–0,49; p<0,01), otiş fraksiyasi bilan musbat (r=+0,48) boğliqlik körsatdi. 2-guruhda korrelyatsiyalar kuçsizroq ifodalandi.


Davolaşga yuqori darajada rioya qiliş 1-guruhda 36,7%, 2-guruhda 53,6% ($p<0,05$), örtaça daraja 40,0% va 32,1% ($p>0,05$), past daraja esa 23,3% va 14,3% ni taşkil etdi ($p<0,05$) (5-jadval).

5-jadval

Arterial gipertenziyali bemorlarda davolaşga moyillik darajasining guruhlar böyiça taqsimoti

Moyillik darajasi	1-guruh (n=60)	2-guruh (n=56)	p
Yuqori	22 (36.7%)	30 (53.6%)	<0.05
O‘rtacha	24 (40.0%)	18 (32.1%)	>0.05
Past	14 (23.3%)	8 (14.3%)	<0.05


Davolaşga moyillikdagi farq maqsadli arterial bosimga erişiş natijalarida ham aks etdi. 2-guruhda 39 nafar bemor (69,6%) maqsadli AB darajasiga erişgan bölsa, 1-guruhda bu körsatkiç 29 nafar bemorni (48,3%) taşkil etdi. YuIK mavjud bemorlarda işemik özgarişlar, miokard remodellanişi, endotelial disfunksiya hamda davolaşga moyillikning pastligi arterial bosimni samarali nazorat qilişni qiyinlaştiruvçi omillar sifatida namoyon böldi (4-rasm).



Izoh: *$p<0,05$; **$p<0,01$ – guruhlararo işonarli farqlar.

4-rasm. Arterial bosimning maqsadli körsatkiçlariga erişiş holatlari tahlili

